



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 264-268 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLAR



Shirinbayeva Sevinch Faxriddin qizi

TDIU Samarqand filiali 2-bosqich talabasi

sevinchshirinbayeva9@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Togayev Salim Sobirovich**

“Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d.

Annotatsiya: Soliqlar jumladan moliyaviy institutlardan undiriladigan soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining eng asosiy manbai hisoblanadi. Soliqlar tizimi davlat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun, davlat byudjeti uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'planishini ta'minlaydi. Moliyaviy institutlarini soliqqa tortish hozirgi davlatimizda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan bir davrda, byudjetga qo'shimcha foydani ko'paytirish masalasiga birmuncha ijobiy yondashish deb atasak bo'ladi hamda moliyaviy institutlarni unumli soliqqa tortish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq tushumi, yirik soliq to'lovchilar, davlat byudjeti, moliyaviy institutlar.

Davlat budjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo'lib, davlatning funksiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Budjet so'zi g'azna ma'nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat budjeti moliya tizimi hamda davlat moliya bo'g'inining asosiy qismidir.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Soliqlar va soliqlarga tenglashtiriluvchi majburiy to'lovlar;
2. Davlat mulkini xususiylashtirishdan keladigan daromadlar;
3. Davlat zayomlari;
4. Qog'oz pullar emissiyasi va boshqalar.

Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo'lib soliqlar hisoblanadi. Soliqlar soliq qonunchiligi vositasida joriy etiladi. Soliqlar asosan fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliqlarning fiskal funksiyasini kasb etsa, ayrim tarmoqlar rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar beriladi va kam daromadli aholining soliqlardan ozod etish, ularni davlat tonmonidan moliyalashtirish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi. Hozirgi sharoitda

davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali manbai bo'lib soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar safiga kiritish Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagilar yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritiladi:

➤ aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to'lanadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar;

➤ tijorat banklari, tovar-xomashyo, fond va valyuta birjalari;

➤ "Navoiy KMK" DK, "Olmaliq KMK" AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar;

➤ mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan tashkilotlar;

➤ mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha 100,0 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yoki ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr yakuni bo'yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari);

➤ uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari), bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari mustasno;

➤ O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'idan yo'lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar.

➤ realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.¹



1 – rasm. 2023 – yilning yanvar – noyabr oylarida eng ko'p soliq to'lagan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati

¹ <https://lex.uz/docs/-4416401>

2023 – yil holatiga ko'ra O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar soni 1 631 tani tashkil etadi. Shu yilning 11 oyi davomida ular tomonidan 87,4 trln so'm soliq tushumlari amalga oshirildi.

Shundan:

◇ 47,3 trln so'mi davlat ulushi mavjud TOP-10 ta yirik soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu o'nlilikda soliq to'lovlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ yetakchilik qilmoqda – 22,3 trln so'm.

◇ 6,1 trln so'mi xususiy sektordagi TOP-10 yirik soliq to'lovchilar hisobiga to'g'ri keladi. Mazkur reytingda "UZ BAT" AJ QK – 2,2 trln so'mga yaqin soliq tushumlarini amalga oshirgan holda yetakchilik qilmoqda.²

2023 – yil yakuni bo'yicha soliq tushumlari qariyb 231 720,7 trln so'mni tashkil etsa, shundan taxminan 38%i (87,4 trln so'm) yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar hisobiga to'g'ri keladi.

2024 – yilda yirik soliq to'lovchilar soni 1631 tadan 2186 taga oshdi.

O'zbekistonda 2024-yil yanvar-fevral oylarida 2 186 ta yirik soliq to'lovchilar tomonidan 17 trln so'mdan ortiq soliq tushumlari amalga oshirildi.



2 – rasm. 2024– yilning yanvar – fevral oylarida eng ko'p soliq to'lagan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati

Ma'lum qilinishicha, shundan 8,7 trln so'mi davlat ulushi mavjud top-10 ta yirik soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu o'nlilikda soliq to'lovlari bo'yicha "Navoiy kon metallurgiya kombinati" yetakchilik qilmoqda – 4,5 trln so'm.

"Kuchli beshlik" dagi soliq to'lovchilar:

- "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ – 1,3 trln so'm;
- "Hududgazta'minot" AJ – 677,9 mlrd so'm;
- "O'zbekneftgaz" AJ – 525,9 mlrd so'm;

² <https://t.me/fiskaltahlil/473>

➤ “Uzgaztrade” AJ – 523,9 mlrd so‘m.

1,3 trln so‘mi xususiy sektordagi top-10 yirik soliq to‘lovchilar hisobiga to‘g‘ri keladi. Mazkur reytingda “UZ BAT” AJ QK – 436 mlrd so‘m soliq tushumlarini amalga oshirgan holda eng yuqori ko‘rsatkich qayd etgan.³

Byudjet daromadlari ko‘p jihatdan yirik soliq to‘lovchi korxonalar iqtisodiy holatiga bog‘liq bo‘ladi va 2020-2023 yillar davomida ularning davlat byudjeti tushumlaridagi ulushini quyidagi jadvalda keltiramiz.

1 – jadval

Yirik soliq to‘lovchilarning davlat byudjeti soliq tushumlarining shakllantirishdagi ulushi tahlili (foizda)⁴

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar			
		2020	2021	2022	2023
1	Davlat byudjeti daromadlari (soliq tushumlari)	100.0	100.0	100.0	100.0
2	Davlat byudjeti soliq tushumlarida egri soliqlarning ulushi	32.8	31.9	34.2	32.6
3	Davlat byudjeti soliq tushumlarida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	65.4	64.0	59.5	58.8
4	Jami egri soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	57.8	61.6	57.1	59.9
5	Davlat byudjeti soliq tushumlarida to‘g‘ri soliqlarning ulushi	42.3	49.0	48.0	48.6
6	Jami to‘g‘ri soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	65.8	66.3	58.1	56.6
7	Davlat byudjeti soliq tushumlarida resurs soliqlarning ulushi	18.8	19.1	17.8	18.7
8	Jami resurs soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	89.0	77.3	70.6	66.6

Yuqoridagi ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak, soliq tushumlarida yirik soliq to‘lovchilar ulushlari barqaror o‘sib yoki kamayib borish xususiyatiga emasligini ko‘rish

³ <https://daryo.uz/2024/03/13/ozbekistonda-2024-yilning-ikki-oyida-eng-kop-soliq-tolagan-yirik-soliq-tolovchilar-ochiqlandi>

⁴ “Yirik soliq to‘lovchi korxonalarda soliq ma‘murchiligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari” maqolasi Norbaeva

Firuz O‘ktamovna

mumkin. Buning asosiy sababi esa yirik soliq to'lovchilar sonining barqaror emasligi hamda qonunchilikdagi o'zgarishlar deyishimiz mumkin.


Jami resurs soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarning ulushi 2021-yilda 89 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, ularning ulushi 66,6 foizni tashkil etgan. Buning asosiy sabablari sifatida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining yillar davomida pasaytirilishi bo'lib, vaholanki, bu soliq turi soliq to'lovchilarining aksariyati yirik soliq to'lovchilar maqomidagi soliq to'lovchilar sanaladi.⁵

Xulosa qilib aytish mumkinki, yirik soliq to'lovchilardan undirilayotgan soliqlar davlat byudjetida salmoqli o'rinni egallaydi. Shu sababli ham yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliqlarni hisoblab chiqarish va undirish jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son qarori
3. Oetarjo M. et al. Online Reviews and Ratings Shape Purchasing Decisions in Indonesian E-Commerce //International Conference on Intellectuals' Global Responsibility (ICIGR 2022). – Atlantis Press, 2023. – C. 557-566.
4. Oripovich, A. Z. "Profit Tax in Uzbekistan: Analysis of The State of Collection and Optimization of Its Impact on Financial Relations." *International Journal of Progressive Sciences and Technologies* 27.2 (2021): 602-611.
5. Behzod ogli R. S., Togayev S. S. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TUSHUMLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 222-225.
6. Norbaeva Firuza O'ktamovna "Yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiligini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari" maqolasi
7. Novianti D. A. et al. Enhancing Buying Interest: Marketing Mix and Instagram's Impact on Lontang Lantung Drinks //3rd Annual International Conference on Natural and Social Science Education (ICNSSE 2023). – Atlantis Press, 2024. – C. 655-663.
8. <https://t.me/fiskaltahlil/473>
9. <https://lex.uz/docs/-4416401>
10. <https://daryo.uz/2024/03/13/ozbekistonda-2024-yilning-ikki-oyida-eng-kop-soliq-tolagan-yirik-soliq-tolovchilar-ochiqlandi>
11. <https://pedagoglar.org/index.php/03/article/view/928/845>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)



⁵ <https://pedagoglar.org/index.php/03/article/view/928/845>